

AXBOROTLASHTGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI
TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUN, METOD VA VOSITALARI

Yodgorova Feruza Mo'minovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12718473>

Annotatsiya. Maqolada axborotlashtlashgan ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirishlarni o'rganishga oid tashkiliy, ilmiy – amaliy izlanishlar va ularni bevosita boshlang'ich ta'limga joriy etish jarayoni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: axborotlashtirish, raqamlashtirish, pedagog, zamonaviy ta'lim, didaktika, kompetensiya.

CONTENT, METHODS AND TOOLS FOR IMPROVING THE TRAINING OF
FUTURE TEACHERS IN THE INFORMATIONAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract. The article talks about organizational, scientific and practical research related to the study of improving the training of future teachers in a computerized educational environment and the process of their implementation directly in primary education.

Key words: informatization, digitalization, teacher, modern education, didactics, competence.

СОДЕРЖАНИЕ, МЕТОДЫ И ИНСТРУМЕНТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ИНФОРМАЦИОННОЙ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. В статье говорится об организационных, научно-практических исследованиях, связанных с изучением совершенствования подготовки будущих учителей в компьютеризированной образовательной среде и процесса их внедрения непосредственно в начальное образование.

Ключевые слова: информатизация, цифровизация, педагог, современное образование, дидактика, компетентность.

Jahonda ta'lim ekotizimining rivojlanishi kadrlar tayyorlash sifatini innovatsion yondashuvlar asosida doimiy takomillashtirib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali sifatini oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etib, YuNESKO ta'lim siyosatini yuritish sektori (Education Sector)ning 2030–yilgacha belgilagan xalqaro ta'lim konsepsiyasida hayot davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish (Life learnine)ga alohida e'tibor qaratilgan. Unda ta'limni sifat jihatdan

yangi darajaga ko'tarish, raqobatbardosh va professional kadrlarni tayyorlashda bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifa etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Axborotlashtirish ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirishlarni o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar A.Musurmanova, Sh.Qurbonov, U.Inoyatov, S.Turg'unov, M.Abdullaeva, T.Hasanov, M.Quronov, M.Vahobov, N.Egamberdieva, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'raev, M.Abdujabbarova, O'.Toshmatov, Z.Ismoilova, U.Mahkamov, Sh.Mustafaev, A.Muhamedov, H.Hamraeva, A.Abdumannopov, R.Niyozmetova, O.Davlatov, A.Kosheleva, U.Qoraboev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.Koptin, V.Anisimov, A.Aytbaeva, J.Shaygozova, M.Sultanova, Ye.Medvedeva, I.Levchenko, L.Komissarova, T.Dobrovolskaya, A.Kuznesova, O.Korjenko, Ye.Zargaryanlar tomonidan bo'lajak mutaxassislarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirishning tashkiliy shart-sharoitlari tadqiq etilgan.

Oliy ta'lim muassasalari zamonaviy ma'noda ta'lim xizmatlarini ko'rsatadigan, ilmiy tadqiqotlar olib boradigan va mutaxassislarning malakasini oshirishni ta'minlaydigan o'quv va ilmiy ishlab chiqarish majmuasidir. Oliy ta'lim muassasalarining rivojlanishidagi asosiy manbalardan biri bu axborotdir, chunki bu strategik maqsad va vazifalarni belgilash, ochilgan imkoniyatlardan foydalanish, ma'lumotli va o'z vaqtida boshqaruv qarorlarini qabul qilish, bo'limlarning harakatlarini muvofiqlashtirish, ularning say-harakatlarini umumiy strategik maqsadlarga yo'naltirishdir.

OTMlarida o'quv faoliyati sifatini yaxshilashning maqsadga muvofiq rivojlanishining

muhim omili - tashkiliy-tarbiyaviy faoliyat, ham ta'lim, ham o'qishdan tashqari sohalarda kompleks xarakterga ega. Integratsiyalashganyondashuv ta'limning murakkab, ko'p qirrali va ko'p bosqichli jarayoni sifatida, undagi ijobiy natija ijtimoiy sheriklik maydonini kengaytirish, o'qimishli shaxs, o'qituvchi, umuman universitet jamoasi va tegishli boshqaruv organlari, shuningdek, jamoat, ijtimoiy-madaniy va boshqa tashkilotlar xususiyatlaridan kelib chiqadi. Faqat ana shunday o'zaro ta'sir kasbning ijtimoiy-madaniy tarkibiy qismlari va voqelikka faol qiziqish bildiradigan qadriyatli munosabatini shakllantirishga imkonberadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik tizimini ishlab-chiqishga yondashuvlarni aniqlashda biz zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyat hamda uning ta'lim tizimi va shaxsga ta'sirini hisobga oldik. Xususan, XXI asrda oliy ma'lumotli shaxsga qo'yiladigan talablar har doimgidan ham yuqori madaniyatga, keng gumanistik qarashlarga ega insonni, global axloq va mas'uliyatni muhim me'yor sifatida anglaydigan ijodkor shaxsni shakllantirishga, yagona va ajralmas dunyoda yangi insonparvarlikka da'vat etuvchi insonni tarbiyalashga qaratilgan. Shuningdek, biz OTMda ta'lim jarayonining tashqi va ichki omillarini hisobga olishni zarur deb hisobladik.

OTMlarda o'quv-tarbiya jarayonining eng muhim tarbiyaviy omili bu o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotdir. Agar faoliyatining turli shakl va usullarini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida birgalikdagi muloqot sub'ektiv xususiyatga ega bo'lsa (insonparvarlik, xayrixohlik, qulaylik), unda OTMda o'qitish va tarbiyalash jarayonlarining samaradorligi va ta'sirchanligi oshadi. Kadrlar tayyorlash jarayonida o'qituvchining ma'naviy, ijtimoiy kasbiy va umumiy madaniyatning tashuvchisi sifatidagi faoliyati ustunlik qiladi.

OTMda o'qish jarayonida psixologik qulaylik, o'qituvchi va talabaning o'quv va sinfdan tashqari ishlardagi insonparvarlik munosabatlari talabaning kayfiyatiga sezilarli ta'sir qiladi, u OTMdagi insonparvarlik muhitidan qoniqish hosil qiladi, ustozga bo'lgan ishonchi ortadi, tarbiyaviy ta'sir samaradorligi oshadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 30.04.2023
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma'qullangan. O'RQ-637. 23.09.2021. <https://lex.uz/ru/docs>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim- tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs>
5. Джураева Б.Р., Умарова Х.А., Тожибоева Х.М., Назирова Г.М. Организационно-содержательные основы инновационной деятельности дошкольных образовательных учреждений / методик қўлланма // Тошкент, - ЎзПФИТИ. – 2016.



MODERN SCIENCE
& RESEARCH